



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR
№35

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”
11-ҚИСМ**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»
ЧАСТЬ-11**

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF
UZBEKISTAN»
PART-11**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]

“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 212 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

.ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

1. Abdullayev Ubaydullo Ziyodullayevich	
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRISH	7
2. Abdusattorov Ulug'bek Adilbekovich	
JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI	9
3. Jalolova Hamida Xayrullayevna	
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JIATLARI	11
4. Narzullayev Laziz Raxmonovich	
BASKETBOL O'YININING TASNIFI, MOHIYATI VA JAHONDA BASKETBOLNING RIVOJLANISHI	13
5. Olimov Bunyod Quvondiqovich, Zaripova Zevarjon Rustam qizi	
FUTBOLDAGI BIRINCHI BOR JORIY QILINGAN O'YIN QOIDALIRI	16
6. Rasulova Mohigul Ikromovna	
QO'L TO'PI O'YIN TAKTIKASINI O'RGATISH YO'LLARI	18
7. Raximov Ziynatbek Rustamboyevich	
YOSH SPORTCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIKHLARI	20
8. Samadov Hayot Hamidovich	
MILLIY HARAKATLI O'YINLAR VA ULARNING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI	22



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR QIZIQISHINI OSHIRISH

Abdullayev Ubaydullo Ziyodullayevich
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o'rta ta'lif məktəbi
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar qiziqishini oshirish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: “Ajodolar merosi”, mantiqiy topshiriq, raqamlar..

Har qanday harakat foaliyati haqida ta'lif berish ma'lum vaqtini talab qiladi. Ta'lifning har bir bosqichi o'zining xususiy va ayrim yetakchi tushunchalari bilan ta'riflanadi. Faqat vazifalar ketma-ket bo'lsagina o'qituvchi ta'lif uslubiyatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, shu qatorda ta'lif prinsiplari, tayyorlov va yo'llanma beruvchi mashqlardan foydalananishi, usullar va uslubiyatlarni maqsadga muvofiq qo'llay olishi mumkin.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonining tuzilishini o'zgarmas deb bo'lmaydi. Bu jarayon faqat bosqichlar elementlarining tipik aloqasi bo'lib ta'lifning umumiy qonuniyatlarini ifodalaydi va aniq vazifalarga qarab o'zgarishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lifning barcha bosqichlarida o'qituvchi o'zlashtirilayotgan faoliyatni o'quvchilar bilan birga tahlil qilishi, baholashi va xatolarni o'z vaqtida tuzatib borishi lozim ekanligi xususidagi amaliy ishlaridagi kamchiliklar, o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'quvchilarga harakat faoliyatini tanishtirish bosqichi va uning mazmuni

Xalqning sog'lig'ini mustahkamlash O'zbekistondagi jismoniy madaniyatning asosiy vazifasidan biridir. Istiqlol davrida, ayniqsa, sport va jismoniy tarbiyaga e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda

MANTIQIY TOPSHIRIQLAR

1. Maktabga 1-smenada o'qiydigan o'quvchi yo'lida 1-smenadagi 2ta o'rtog'i bilan uchrashib qoldi. Hammasi bo'lib maktabga nechta o'quvchi ketyapti? (1 ta)
2. 7 ta sham yoqishgandi, 2 tasi o'chib qoldi. Nechta sham qoldi? (2 ta)
3. Yo'lkada 6 ta chumchuq bor edi. Ularning yoniga yana 8 tasi uchib keldi. Shu payt paydo bo'lgan mushuk ulardan 1tasini ushlab oldi. Nechta chumchuq qoldi? (Hammasi uchdi)
4. Yerdamas yurish ishim
Daraxtdir mening jismim
Shoxiga qo'shib bir dum
Shunda jismim bilarsiz
O'ynab xursand bo'larsiz. (shaxmat)
5. Nimani o'ng qo'l bilan ushlash mumkin, lekin chap qo'l bilan ushlash mumkin emas? (chap qo'l tirsagi)





“Ajdodlar merosi” usuli. Bunda o‘quvchilarga ota-bobolarimiz-ning boy merosi, ular shug‘ullanga sport turlari, qadimdan sportga bo‘lgan e’tibor haqida o‘rgatiladi. Tarixda o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Boburlar shunday hukmdorlar edilar.



“Raqam bilan chaqirish” usuli.

Bunda o‘quvchilarga o‘zлari yoqtirgan futbolchilarining raqamlarini tanlash va o‘sha raqamni o‘zлariga olish imkonи beriladi. Dars davomida o‘quvchilar o‘sha raqamlar bilan aytildi.

10

9

7

5

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, sport turlarining yosh avlodni tarbiyasida ahamiyati beqiyos.

Foydalanilgan adabiyorlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

2.Internet saytlari: Ziyonet.uz, kitob.uz, multemidiya.uz



JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Abdusattorov Ulug'bek Adilbekovich

Xorazm viloyati Urganch shahar

8 – sonli AFChO'IMI ning

jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbiq qilinadi. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tamoyillari va ulardan ko'zlangan maqsadlar haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, mashg'ulot, tamoyil, ta'lif, tarbiya, pedagogika, o'quvchi – talabalar, shug'ullanuvchilar.

Jismoniy tarbiya jarayoni ko'p qirralidir. Bu jarayonda ta'lif ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lif berish harakat ko'nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan birdir. Aqliy, ahloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo'shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insomni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlanirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiyy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayoninig ta'lif va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan. Jismoniy tarbiyada harakatlarni birlashtirish va ularni mashq uslublari bilan yaxlit tartibda qo'llash hollari bo'ladi.

Ta'lif va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang'ich qoidalar tarbiya tamoyillari deb ataladi. Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbiq qilinishi mumkin, chunki bu jarayon ta'lif va tarbiyaning xususiy hodisasi va jismoniy tarbiya sohasida xususiyatini aks ettirib, alohida ahamiyat kasb etadi. Biz quyida ushbu tamoyillarni ko'rib o'tamiz.

Onglilik va faollilik tamoyili. Jismoniy tarbiya jarayoni vazifalarini to'g'ri tushunish, ularni qiziqish bilan faol bajarish tarbiyaning borishini tezlashtiradi, hosil qilingan bilim, malaka va ko'nikmalarni chuqur takomillashtirish va ulardan xayotga ijodiy ravishda foydalanishga imkon beradi. Bu qonuniyatlar eng avvalo onglilik va faollilik tamoyilining asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya jarayonida beriladigan vazifalar ma'lum jismoniy mashqlar tarzida bajariladi. Maqsad va vazifalarni qanchalik tushunib olish shug'ullanuvchilarni yosh imkoniyatlariga va tayyorlik darajasiga bog'liqligi o'z-o'zidan ravshandir. Shug'ullanuvchilarning harakatlari bajarilishini o'qituvchi va murabbiylar nazorat qiladilar, baholaydilar va xatolarni tuzatib boradilar. Shunga qaramay shug'ullanuvchilarni o'z harakatlarini o'zları baholashi va nazorat qilish qobiliyatini rivojlanirish muhim hisoblanadi. Bunda harakatlarni oldindan xis qilish va sinash qo'llaniladi. Shug'ullanuvchilarning faolliliklarini oshirishda ularning erishgan yutuqlarini muntazam ravishda baholab va rag'batlantirib borish muhim rol o'ynaydi.

Ko'rsatmalilik tamoyili. Jismoniy tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik tamoyili tarbiyaning umumiyy shartlaridan hisoblanadi. Ko'rgazmalilikning hilma-xil shakllaridan foydalanish mashg'ulotlarga qiziqishni oshiradi, mustahkam bilim, mahorat va malaka hosil qilishga yordam beradi. Pedagogika tajribasida ko'rsatmalilik tarbiyalanuvchilarning ko'rish eshitish va idrok etish tuyg'ulariga ta'sir etib tarbiya vazifalarini amalga oshirish tushuniladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ko'rsatmalilik muhim rol o'ynaydi, chunki shug'ullanuvchining faoliyati asosan amaliy harakterda bo'ladi va sezgi organlarini har tomonlama rivojlanirishdek o'zining maxsus vazifalaridan biriga egadir. Jismoniy tarbiya jarayonida bevosita ko'rsatmalilik jismoniy mashqlarni namoyish qilib ko'rsatish, shuningdek, bu mashqlarni shaxsiy tajribada "his etish" dan iboratdir. Bevosita ko'rsatmalilikka jismoniy mashqlar va harakatlarni amalda bajarib namoyish qilishni kiritish mumkin. Bevosita ko'rsatmalilikka esa birinchidan, rasm, sxema, maketlardan, kinogramma, videofilmlar va boshqa ko'rsatmali qurollardan, shuningdek, harakatlarning ayrim tomonlarini ko'rsatuvchi va ularning bevosita idrok etishni osonlashtiruvchi har xil maxsus texnik vositalardan foydalanish, ikkinchidan, obrazli so'z kiradi.

Bajara bilish va individuallashtirish tamoyili. Bajara bilish va individuallashtirish tamoyili tarbiyalanuvchilarning xususiyatlarini hamda ularga berilayotgan topshiriqning qanchalik qiyin yoki yengillagini ham hisobga olishni ifoda etadi. Jismoniy tarbiyada ta'lif va tarbiya



jarayonini shug'ullanuvchilarning imkoniyatlarini, yosh va jins xususiyatlarini tayyorgarlik darajasini shuningdek jismoniy va ma'naviy qobiliyatlaridagi individual farqlarni ham hisobga olgan holda tashkil qilish lozimligini bildiradi. Jismoniy mashqlarni bajara olish, bir tomondan, shug'ullanuvchilarni imkoniyatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning o'zлari uchun xos bo'lган xususiyatlarga biror mashqni bajarish paytida sodir bo'ladigan obektiv qiyinchiliklarga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi bajara olish me'yorini belgilari ekan, avvalo ilmiy ma'lumot va umumlashgan amaliy tajribalar asosida shug'ullanuvchilarning biror bir kontingenti uchun belgilanadigan dasturlarga va normativ talablarga asoslanadi. Shug'ullanuvchilar imkoniyatlari jismoniy tayyorgarlik mezonlari orqali sinash, tibbiy nazorat va pedagogik kuzatishlar bilan aniqlanadi.

Bajara bilish tamoyilini ko'pincha oddiydan murakkabga, osondan qiyinda degan qoidalar bilan ifoda etiladilar. Mashg'ulotlarni individuallashtirish yoki mashqlarni shug'ullanuvchilarning yosh, jins va jismoniy tayyorgarlik hamda imkoniyatlarga muvofiq o'rgatish jarayoni o'ziga xos vosita va uslublarni talab etadi. Organizmning funksional imkoniyatlari doimo bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun harakatlarni o'zlashtirishda tafovutlar bo'ladi. Bu tafovutlarning barchasi jismoniy tarbiyada harakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, jismoniy mashqlarga o'rgatish jarayonlarini qat'iy moslashtirish ya'ni individuallashtirishni talab etadi.

Muntazamlilik tamoyili. Muntazamlik tamoyili jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining shuningdek, jismoniy yuklama bilan dam olishni almashtirib turishning muntazamliligidagi namoyon bo'ladi. Muntazam ravishda mashq qilishning samarasi beqiyos katta bo'ladi. Jismoniy tarbiya jarayonining muntazamliligi asosan yuklama bilan dam olishni eng qulay navbatlashuviga qay darajada bog'liq ekani xususiyati bordir. Uzluksiz jismoniy tarbiya inson xayotining barcha davrlaridan uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Jismoniy tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Dastlab zaruriy harakatlar, xususan qo'l harakatlari malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi, keyinchalik oyoq va gavda harakatlari bo'lган asosiy malakalar takomillashtiriladi. Bu bilan tanlangan sport turi bo'yicha ixtisoslashish yuzaga keladi. Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malaka va ko'nikmalarini ijobji ko'chishidan maksimal foydalanib salbiy ko'chishini esa imkoniyat boricha bartaraf etish zarur. Jismoniy yuklamalarni samarali natija berishi muntazamlilik tamoyilining bosh omillari hisoblanadi. Shuningdek, bunday mashg'ulotlardan so'ng aktiv va passiv dam olishni tashkil etish zarur. Mashg'ulotlar va mashqlar izchilligi shug'ullanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarga, mashg'ulotlar yo'naltirilishiga, hamda jismoniy yuklamalarning miqdori va tarkibi shuningdek ta'sir kuchiga bog'liq bo'ladi.

Taraqqiyot tamoyili. Bu tamoyil jismoniy tarbiya jarayonida shug'ullanuvchilarga qo'yildigan talablarning umumiyo yo'nalishini ifoda etadi va qiyinlashib boruvchi yangi-yangi vazifalarni qo'yish va bajarishni, shular bilan bog'liq bo'lган yuklamalar xajmi va intensivligini asta-sekin oshirib borishni o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya ham mashg'ulotdan-mashg'ulotga, bosqichdan-bosqichga uzliksiz o'zgarib borish yo'li bilan doimiy harakatda, o'sishda bo'ladi. Bunda mashqlarning murakkabligi ortib, ta'sir kuchining pasayib borishi harakterli belgi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchi-talabalarini oshirishning asosiy shartlari yengillik, individuallashtirish, tizimlilik tamoyillarini tahlil qilish ularning o'zaro muvofiqdaligini ko'rsatadi. Talablarni oshirib borish yangi topshiriqlar va yuklamalarni bajarishga shug'ullanuvchilar tayyorgarligi muvofiq kelsa topshiriq va yuklamalar organizmining funksional imkoniyatlarga mos kelsa, yosh, jins, individual xususiyatlarga mos bo'lsa ijobji natijalarga olib keladi. Mashqlarning almashinishi va o'zaro aloqada bo'lishi bilan bog'liq bo'lган izchillik, mashg'ulotlarning muntazamliligi yuklama va dam olishning optimal almashinuvi ham asosiy shartlardan hisoblanadi.

Ta'lrim muassasalarida jismoniy tarbiya maqsadi-talabalar organizmini jismoniy rivojlantirish, sog'lomashtirish, hayotga tayyorlash. Ta'lrim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlarining vazifasi o'quvchi-talabalarini jismoniy harakatlar va jismoniy mashqlarga o'rgatishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Abdullayev Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati.
2. A. Abdullayev. Jismoniy tarbiya vositalari.
3. U. Tursunov Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.
4. F.A.Kerimov Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar.



JISMONIY TARBIYA DARSALARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI

Jalolova Hamida Xayrullayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 15-sonli
umumta’lim maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi
Tel:+998912508945 Email : Hamida1978@inbox.uz

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, jismoniy, ma’naviy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha ayrim tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy fanlar, interfaol metodlar..

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyasi Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko‘tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o‘rin egallashga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, jismoniy, ma’naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir.

O‘qituvchilar o‘qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg‘ulotlar o‘tkazishga tayyorlanishi, turli o‘quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o‘quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o‘qitish va o‘rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o‘quv vositalaridan samarali foydalanish va o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga imkon qadar manfaatli bo‘lishini ta’minlash va shu kabi boshqa ko‘pgina vazifalar o‘qituvchining zimmasiga to‘liq yuklatiladi.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, o‘qituvchi o‘z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko‘nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo‘ladi

Ta’lim tizimida o‘quvchining
uch turli maqomi, pedagogik
faoliyatning uch turini alohida
qayd qilish mumkin

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi,
shu bilan xarakterlanadiki, unda
o‘qitish tajribasi umumlashtiriladi,
tizimlashtiriladi va ilmiy fan
ko‘rinishini oladi.

Pedagogik faoliyatning uchinchi turi shu bilan xarakterlanadiki, u pedagogik texnologiya
asosida amalga oshiriladi, o‘qituvchining holatini, zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi
holati bilan taqoslash mumkin



Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sport



mashg‘ulotlarida, bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mayjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchilarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish va o‘rganish faolligini oshirishga erisha oladi. Buning uchun o‘quvchilarning interfaol o‘quv mashg‘ulotga tayyorlash, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirib olishlari, xamda o‘quv mashg‘ulotiga tayyorlanib kelishlari, dars jarayonida o‘qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar o‘tkaza bilishlari, ijodiy , amaliy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur. Ta’lim jarayoni faqat o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o‘quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog‘langan. O‘quvchining o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida o‘quv jarayoni faollashadi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida o‘quvchining o‘z xatti-harakatini o‘zi nazorat qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirot etishi , o‘quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tadbiq etilishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya va sportning nazariy, amaliy darslarida, interfaol metodlardan foydalanishning afzalligi:

1.O‘quvchilarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi;

2.O‘qituvchi tomonidan

o‘quvchilarni nazorat qilishning qulayligi

3.O‘quvchilarni qisqa vaqt ichida ko‘proq malumot olishi

4. O‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi ,

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalari rivojlanadi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatalishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Interfaol degani bu-

*o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro
hamkorligi asosida dars
samaradorligini oshirish,
o‘quvchida mustaqil fikrlash
ko‘nikmalarini shakllantirishning
fikr-mulohaza, babs orqali
amalga oshirilishidir.*



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma.

2.O‘zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. “O‘zbekiston”, Toshkent, 1997 yil.



BASKETBOL O’YININING TASNIFI, MOHIYATI VA JAHONDA BASKETBOLNING RIVOJLANISHI

Narzullayev Laziz Raxmonovich
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-umumiy o’rta ta’lim maktabi
jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada basketbol o’yining jahonda tutgan o’rni va rivojlanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Neysmit, to’p, darvoza, match, sport, o’yinlar, jarima....

Hozirgi kunda basketbol o’yining rivojlanish tarixi 1891-yilning dekabr oyidan boshlangan. Sprigfild shahridagi (AQSH, Massachuri shatati) xristian –ishchilar maktabining anatomiya va fiziologiya o’qituvchisi doctor Jeyms A. Neysmit talabalarning qish faslidagi jismoniy mashg’ulotlarini bir qator jonlantirishga qaror qildi. Neysmit tomonidan ijro qilingan o’yining dastlabki variant 5 ta asosiy shartdan va 13 ta asosiy qoidalardan iborat bo’lgan o’sha o’yining dastlabki qoidalari 1892 yil 15-yanvarda “Uchburchak” (“Triugolnik”) degan gazeta sahifalarida bosilib chiqadi. Neysmit yangi o’yin uchun futbol to’pni tanlaydi, chunki bu to’pni qo’l bilan olib oson bo’lib uni oshirish qiyin hamda yerga urilgan vaqtida to’p yerdan doimo yuqoriga otilib o’ynashi unga ma’qul bo’lgan.

Basketbol atamalari

Basketbol o’yini musobaqa qoidalarda turli atamalar uchraydi, shuningdek, umumiy qabul qilingan qisqartirishlar ham mavjud bo’lib, ulardan o’yinchilar va hakamlar foydalaniib, o’yin vaziyat-lariga doir fikr almashishda foydalananadilar. Maxsus atamalarни bilish, basketbol o’yini murabbiyi va o’qituvchining so’zini tushu-nishni, hakamning xatti-harakatlarini hamda jamoadaagi sherkilari bilan muomalamani yengillashtiradi, doimiy o’zgaruvchan o’yin holatida tez moMjal olish imkonini beradi. Basketbolning quyidagi asosiv atamalarini esda saqlashni tavsiya etamiz:

Shiddatli hujum — hujumchining raqib shitiga harakat: jihatdan tezkor hujum, shuningdek, tezkor yorib o’tish deb ham ataladi.

To’sish — bu hujunga kirish uchun himoyachimi to’sish, to’pi bo’lmagan raqibning harakatlanishiga yoM bermaslik.

Savatga tashlash — raqib savatiga to’pni tushirishga yo’nal-tirilgan faoliyati (tashlash bilan uzatishni farqlang).

Bahs to’pi — maydonadagi uchta doiradan birida jamoalarning ikki o’ymehisi o’rtasida to’pni tashlab, o’yinga kiritishga aytildi.

Jarima to’pi tashlashi — to’pni savatga tashlash paytida uni to’xtatib qolish maqsadida raqib tomonidan yoi qo’yilgan xato uchun belgilanadi va u jarima tashlash chizig’idan bajariladi.

Basketbolning rivojlanish bosqichlari:

1-bosqich:

1891-1918-yillarni o’z ichiga olib, basketbolning yangi o’yin sifatida shakllanib boorish bosqichi hisoblanadi. Avvaliga gimnastika darslarini biroz jonlantirish uchun yaratilgan basketbol asta-sekin sport o’yiniga aylanib, uning o’ziga xos barcha xususiyatlari shakllana boshlaydi. Uning dastlabki rasmiy o’yin qoidalari, texnikasi va taktikasi yaratiladi.

2-bosqich:

1919-1931-yillardan iborat bo’lib, bu davr milliy basketbol federatsiyasi tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa basketbolning sport o’yini sifatidirovjanib borishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Xuddi shu davrda dastlabki basketbol bo’yicha xalqaro turnir-musobaqalar o’tkaziladi.

3-bosqich:

1932-1947-yillarni o’z ichiga oladi. Bu davrda butun dunyo bo’yicha basketbol o’yini har tomonlama rivojlanganligi bilan xarakterlidir. Bu davrda basketbol o’yini federatsiyasi (FIBA) tashkil etiladi. Bu hodisa basketbolni sportning Olimpiya turidagi o’yinlar qatoriga kiritilishi bilan birga sodir bo’ladi.



4-bosqich:

1948-1965-yillarni o’z ichiga oladi. Bu yillarda butun dunyoda basketbol o’yini shiddat bilan rivojlanibgina qolmay, muayyan sakrashlar tarzidagi taraqqiyot va sport mahoratining o’sishi ham ana shu davrga to’g’ri keladi. To’pni bir qo’l bilan otish qoidasi paydo bo’ladi raqibning hujumiga qarshi o’zini himoya qilish texnikasi va taktikasida ancha murakkab usullar paydo bo’ladi. Mini basketbol o’yini vujudga kelib, dunyo bo’ylab tarqala boshlaydi.

5-bosqich:

1986-1990-yillarda milliy Federatsiyalar soni ortadi. Milliy professional basketbol uyushmalari (XBA) paydo bo’ladi. Basketbolchilarining xalqaro aloqalari mustahkamlanadi, o’yin texnikasi va taktikasida yangiliklar vujudga keladi.




Sherik — o’z jamoasi o’yinchisi

To’pni uzatish — bu o’yinchining to’pning boshqa o’yinchiga tez siljishiga yo’naltirilgan faoliyati bo’lib, to’g’ri yuqoridaan sakratib „kryuk“ bilan qo’liga uzatishlardan iborat. **Birinchi uzatish** — bu uzatish, himoyada to’pni egallagan yoki shitdan qaytgan paytdan so’ng bajariladi. Birinchi tez va aniq uzatish, tez yerib o’tib hujum qilishning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. **Yashirin uzatish** — buni o’yinchı eng oxirgi lahzagacha bildirmaydi va to’pning uchish yo’nalishini niqbolbydi. O’ymming taktik chizig’ida to’pni uzatish ketma-ket chiziqlarda belgilanadi. **Himoya qilish** — sherigi g’azxo’rlik qilib, kuzatib, qo’riq-lab turganda himoyachimi hujumchi o’tishi mumkin bo’lgan to-monga siljitsishdir.

Pressing — inglizcha so’z bo’lib, hujumchilarni shoshilinch faoliyat va xato qilishga majbur qiladigan tig’iz, faol himoyadir. O’ymming oxirgi daqiqalarida ko’pincha janoa bilan qo’llanadi.

O’yin usullari (yoki o’yin texnikasi unsurlari) — basketbolchiga asosiy malakalar, o’yinda faol va samarali qatnashish imkonini beradi. Bunga uzatishlar, ushlash, olib yurish, tashlash, to’psiz va to’p bilan otishlar, sakrab qaytgan to’p uchun kurash, raqibni qoriqlash va boshqalar kiradi.

Probejka yoki to’p bilan yugurish. O’yinchı to’pni olib yurishni boshlab, to’pni qo’lidan chiqarmaguncha u o’ng oyog’ini poldan (maydonдан) ko’tarishga haqiqi yo’q. O’yinchı harakatda to’pni olib qo’lida to’p bilan ikki qadamdan ortiq yurish qila olmaydi, bu yoki u vaziyatda qoidani buzish probejka sifatida qayd qilinadi va to’p boshqa jamoaga beriladi.



Basketbol o’yining rivojlanishiga yo’naltirilgan ishlar sport zallari va maydonlari qurulishi va yangidan jihozlanishi, shular jumlasidandir. Hozirgi kunda Respublikamizda 350 dan ortiq sport zallari, 150 dan ortiq talabga javob beradigan basketbol maydonlari, 9 mingdan ortiq saport maydon va maydonchalari mavjud.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, sport turlarining yosh avlodni tarbiyasida ahamiyati



beqiyos. Basketbol ham ana shunday sport turlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda o‘quvchi yoshlarning sevimli o‘yiniga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulev O.T Basketbol. Oliy o’quv yurtlari uchun darslik Toshkent-1998 y
2. Sokolova N. D, G’aniyeva F.V, Ismatullayev X. A Basketbol. Ma’ruzalar to’plami. Toshkent-2001
3. Internet saytlari



FUTBOLDAGI BIRINCHI BOR JORIY QILINGAN O‘YIN QOIDALIRI

Olimov Bunyod Quvondiqovich

Shovot tumani 38-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (91) 432 46 17

olimov.bunyod_38@inbox.uz

Zaripova Zevarjon Rustam qizi

Shovot tumani 38-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (91) 916 03 20

zz_rustamqizi0320@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada yillar kesimada futboldagi birinchi bor joriy qilingan o‘yin qoidalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Futbol, maydonning bo‘yi, darvoza chizig‘i, o‘yindan tashqari holat, aut, arqonli darvoza ustuni, FIFA, UeFA, KONKAKAF, AFK.

Birinchi bor yagona o‘yin qoidalari joriy qilishga urinib ko‘rish Kembridj futbol klubiga tegishlidir. XIX asr o‘rtalaridagi “to‘s-to‘polon futbol”dan bosiqroq, jamoaviy, tashkillashtirilgan futbolga o‘tildi va 1848 yilda Kembrijda rasmiylashtirilmagan futbol qoidalari ishlab chiqilib, o‘yinlar tashkil etildi. 1848 yili bu qoidalarni nashr etishga qaror qilinadi. Afsuski, u bosmadan chiqmay yo‘qolib ketadi. Shunga qaramay, bu qoidalalar ko‘p ingliz kollejlarida “Kembridj qoidalari” tarzida ma’lum. Oradan 9 yil o‘tib, ya’ni 1857 yil Sheffild shahrida dunyoda birinchi bo‘lib futbol jamoasi tashkil topdi.

Bizgacha yetib kelgan dastlabki qoidalalar esa 1863 yili 26 oktyabr Londonga Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o‘yinning 13 moddadan iborat bo‘lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan keyinchalik bu qoidalalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o‘yining asosi bo‘lib qoldi. 1863 yili, 8 dekabrida bu qoidalalar e’lon qilingan. Qo‘yida o‘sha qoidalalar teksti “Futbol: tarixi uyushtirish, texnika, trenirovka, va taktikasi” (Maskva, 1927) kitobida qanday e’lon qilingan bo‘lsa, xuddi o‘shanday keltirilgan:

1. Maydonning bo‘yi 200 yard (183m) dan, eni 100 yard (91.5m) dan oshmaydi. Maydonning burchaklarida bayroqchalar o‘rnatalidi. Ustiga to‘s-in yotqizilmagan darvoza 8 yard (7.32 m) oraliqda o‘rnatalgan bo‘lib, ikkita ustundan iborat.

2. Kim qay tomondan o‘ynashi qur’a tashlab hal qilingan. Kur’ada yutqazgan jamoada maydon markaziga qo‘ylgan to‘pni tepib, o‘yinni boshlab beradi. Ikkinchi jamoa o‘yinchilari to‘p tepulguncha qadar unga 10 yard (9.1m) dan yaqin kela olmaydilar.

3. Darvozaga to‘p urilgandan keyin, jamoalar tomonilarini almashirganlar.

4. To‘p qo‘lda uloqtirilmay, qo‘lda zarba berilmay yoki qo‘lda ko‘tarib kirilmay, ikkita ustun oralig‘idan o‘tsa, darvoza zatb etilgan hisoblanadi.

5. Agar to‘p yon chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, unda hammadan avval tega olgan o‘yinchi to‘pni chiziqni kesib o‘tgan joydan, chiziqqa nisbatan to‘g‘ri burchak hosil qiladigan o‘ynalishda to‘pni qo‘lda maydonga tashlab beradi. To‘pni yerga tekkan zahoti o‘yinga kirgan hisoblanadi.

6. O‘yinchi zarba berayotgan paytda uning jamoasining zarba beruvchidan ko‘ra raqib darvozasiga yaqinroq turgan hamma o‘yinchilari o‘yindan tashqari holatda hisoblanadi va ular to‘pga tega olmaydilar yoki raqiblarga halaqit bera olmaydilar.

7. To‘p darvoza chizig‘idan tashqariga chiqib ketib, chiziqning nariyog‘ida himoyalanayotgan jamoada o‘yinchisi birinchi bo‘lib unga tegsa, shu jamoada darvoza chizig‘ining o‘yinchi to‘pga tekkan joy ro‘parasidagi nuqtasidan to‘p tepish huquqini oladi: bordi-yu hujum qilayotgan jamoada o‘yinchisi to‘pni birinchi to‘pni tekkan joy ro‘parasidagi nuqtasidan erkin to‘p tepish huquqini oladi. Erkin to‘p tepish paytda himoyadagi jamoa to to‘p tepilguncha qadar darvoza chizig‘idan tashqarisida turadi.

8. Agar o‘yinchi boshqa o‘yinchi zarbasidan uchib kelayotgan to‘pni bevosita qo‘li bilan ilib olsa, shu holat ro‘y bergen joyni belgilab olib, o‘sha joydan erkin tepishi mumkin.

9. O‘yinchilar to‘pni qo‘llariga olib yugura olmaydilar.

10. O‘yinchilarni chalish va urish man etildi, shuningdek o‘yinchini qo‘l bilan ushlab to‘xtatib qolish yoki turtish man etiladi.

11. To‘pni qo‘l bilan uzatish man etiladi.



12. Maydon ichida to‘pga qo‘l tekkizish man etiladi.
13. Temir va guttaperchadan qilingan joylari turtib chiqqan poyavzallarda o‘ynash man etilgan. Ko‘rinib turibtiki, 1863 yildagi qoidalalar hozirgi qoidalrdan anchagini farq qiladi. Bu hozirga kungacha futbol qonun qoidalari yillar o‘tishi bilan o‘zgarganligini ko‘rsatadi.
- 1866 yilda “o‘yindan tashqari holat” qoidasi yengillashtirildi. Endi raqiblar sirt chizig‘i bilan o‘zi o‘rtasida qarshi tomon o‘yinchilaridan uch kishi bo‘lsa, bu o‘yinchi “o‘yindan tashqari holat” bo‘lmaydi.
- 1866 yilda yilda balandlikni cheklash uchun ustunlar orasiga arqon tortiq qo‘yildi.
- 1870 yili birinchi marta 11 o‘yinchi maydonga chiqqdi.
- 1871 yili birinchi marta darvozabonga o‘ng qo‘l bilan o‘ynash ruxsat berildi.
- 1871 yildan uchrashuvlar 1.5 soat mobaynida o‘tkazila boshlagan.
- 1872 yildan boshlab futbol bo‘yicha halqaro uchrashuvlar tarixi boshlandi. Unda angliya va Shotlandiya terma jamoalari kurash olib borgan. Uchrashuv durrang 0:0 bilan yakunlangan.
- 1872 yili ko‘pchilik jamoalar yig‘iliib bir qarorga kelishdiki, to‘p yumaloq va uning sferik aylanasi taxminan 68.6-70 sm bo‘lishi lozim. Shu yili to‘pning og‘irligi va hajmi rasman tasdiqlangan.
- 1873 yili to‘p himoyadagi o‘yinchiga tegib, sirt chiziqdani maydon tashqarisiga chiqib ketganda burchakdan to‘p tepish qoidasi kiritildi.
- 1873 yili aut to‘pni qo‘lda o‘ynashga kiritish belgilangan.
- 1875 yili arqonli darvoza ustuni o‘rniga 2.44m balandlikda yotqazilgan to‘singa almashtirildi.
- 1875 yili darvozaga to‘p kiritilgandan keyin tomonlar almashinish qoidasi o‘rniga, o‘yinchilar tanaffusdan qaytgandan keyin almashish qoidasi joriy qilindi.
- 1880 yili birinchi marta futbol o‘yinida hakam ishtirot eta boshladidi. Ungacha futbol jamolarining sardorlari o‘yin qoidalariга rioya qilinishini kuzatib turganlar.
- 1883 yildan boshlab uchrashuv ikkita bo‘limga bo‘linib, o‘sha 1.5 soat ikkiga bo‘lingan (45 daqiqadan).
- 1884 yildan Britaniya orollarida birinchi halqaro rasmiy turnir o‘tkazila boshlangan.
- 1891 yili birinchi marta sudya (hakam) ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqqdi.
- 1891 yili birinchi marta 11 metrlik penalti belgilandi.
- 1902 yilda darvozabonga ikkita qo‘lda o‘ynashga ruxsat etilgan.
- 1902 yili birinchi marta to‘liq va to‘g‘ri maydon o‘lchamlari chizildi.
- 1933 yili birinchi marta 1-11 gacha o‘yinchilar raqamda chiqishdi.
- 1900 yildan futbol olimpiya sport turiga aylandi, ammo rasmiy jihatdan u Olimpiya o‘yinlari dasturiga 1908 yilda kiritilgan.
- 1904 yili Belgiya, Gollandiya, Daniya, Fransiya, Shvetsiya, va Shvetsariya vakillari tashabbuskorligi bilan Halqaro futbol uyushmasi (FIFA) tuzildi. Bu uyumaga 200 ortiq davlatlar a’zo bo‘lgan. FIFAning tashkiliy negizini 6 qit‘aning tashkilotidan iborat. Balar: UeFA – yevropa ittifoqi futbol uyushmasi, KONKAKAF – shimoliy va markaziy Amerika mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasi mamlakatlarining futbol konfederatsiyasi, KONMeVOL – janubiy Amerika mamlakatlari futbol konfederatsiyasi, KAF – Afrika futbol konfederatsiyasi, AFK – Osiyo futbol konfederatsiyasi, KFO – Okeaniya futbol konfederatsiyasidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati

1. Normurodov A. N. «Yengil atletika» TOSHDSHI 2012 yil.
2. YUnusov Y.M. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi (uchebnik). T.: 2017 g.
3. Umumiy va sport fiziologiyasidan amaliy mashg’ulotlar, T.: «O’qituvchi» 2010 y.



QO’L TO’PI O’YIN TAKTIKASINI O’RGATISH YO’LLARI

Rasulova Mohigul Ikromovna


Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15-umumi o’rta ta’lim maktabi

jismoni tarbiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning qo’l to’pi o’yinida taktika bilan texnika bir-biriga uzviy bog’liqligi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Taktika , to‘p, darvoza, texnika, sport, o‘yinlar, jamoa....



Vositalardan foydalanish lozim. Taktika deganda o‘yinchilarning raqib ustidan g’alaba qozonishga qaratilgan shaxsiy yoki jamoa harakatlarini tashkil qilinishi, ya’ni, aniq raqib bilan muvaffaqiyatli kurash olib borishga imkon beradigan harakatlarni tushunish kerak. Taktikadag asosiy vazifa bu-hujum va himoya harakatlarining maqsadga erishtira oladigan eng qulay vositalari va o’zaro uyg’unlashgan shakllarini belgilashdan iboratdir. Himoyada o’ynashning umumjamoa usuli shaxsiy, hududiy va aralash bo’lishi mumkin.. Biroq qisman bo’lsa ham boshqa usul elementlaridan foydalanmasdan birgina usulda o’ynayverish xato bo’ladi, chunki bu hol himoya taktikasini qashshoqlashtirib qo’yadi. Himoyada o’ynash usullarini himoyachilarning shaxsiy xislatlari va imkoniyatlarini hisobga olib tanlash kerak..

Mudofaa qilayotgan jamoa harakatlarining hammasi hujum qilayotganlar harakatiga javob tariqasida bo’lib, raqiblar taktikasining xususiyatlariga qarab uyushtiriladi. Mudofaaning yaxshi uyushtirilgani jamoaga hujum harakatlarini ham muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini beradi.



- 1904 yili birinchi bo’lib Daniya qo’l to’pi federatsiyasi tashkil topdi. 1906 yili Kopengagen shahrida qo’l to’pi o’yinining dastlabki qoidalari nashr etildi. Ushbu qoidalarning muallifi ham X. Nilson hisoblanadi
- 11 kishidan tashkil topgan jamoaviy gandbol o’yini 1917-1919 yillarga to’g’ri keladi. U paytda futbol va basketbol o’yinlari birlashtirilib, qizlar uchun moljallangan o’yin o’ylab topilgan, ushbu yangi o’yinni dunyo bo’yicha tarqalib, mashxur bo’lib ketishini xech kim tasavvur xam qilmagan edi.

Qo’l to’pi atletik sport turlaridan biri hisoblanib, bunda bir jamoa o’yinchilari raqib ustidan ustunlikka erishish uchun o’z rejalarini yashirgan holda raqib rejasini ochishga harakat qilishadi. Shuning uchun bu o’yinni raqiblarni o’zaro sport bellashuvi deb yuritish mumkin. O’yin jarayonini o’yin texnikasi, taktikasi va strategiyasi aniqlab beradi. Bularsiz jamoalarning sport kurashini tasavvur qilib bo’lmaydi.

Qo’l to’pi o’yinida muvaffaqiyatga erishish asosan to’g’ri harakat qilishga bog’liq. Shu sababli o’yinni boshqarishda turli xil taktik

Himoyaning asosiy maqsadi, raqiblarning darvozaga to’pni aniq otishi imkoniyatini kamaytirishdir. Bunda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat bo’ladi:

- 1) qisqa vaqt ichida raqiblardan to’pni olib qo’yish;
- 2) hujumda ishtiroy etuvchi guruh o’yinchilari orasidagi o’rnatilgan aloqalarni buzish;
- 3) darvozaga to’p otishlariga qarshilik ko’rsatish.;
- 4) o’z darvozasi oldida to’p uchun kurashish va to’p egallangandan so’ng hujumni tashkil qilish.;

Himoyada o’ynash usullari xilma-xil bo’lib, asosan darvozani mudofaa qilish, to’pni qo’lga kiritish uchun faol kurashishni nazarda tuting. Himoyadagi o’yin ham hujumdagisi singari

shaxsiy, guruh va jamoa harakatlaridan iborat. **Jamoa harakatlari:** Himoyada jamoa harakatlarini tashkii etishda uch tizim: shaxsiy, zonali va aralash himoya tizimlaridan foydalaniladi. **Shaxsiy himoya:** Bu qo’l to’pi o’yinida asosiy himoya qilish tizimidir. Shaxsiy himoya uch variantdan iborat: butun maydon bo’ylab, maydonning o’ziga qarashli qismida va erkin to’p tashlalash



zonasida.

Agar raqib jamoasi o'yinchilari texnik jihatdan bo'sh yoki hujum qilishi sust bo'lsa, o'yin vaqtini ataylab cho'zishsa yoki himoya qiluvchi o'yinchilar son jihatdan ustunlikka ega bo'lsa, u holda butun maydon bo'ylab shaxsiy himoya qilishni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Maydonning o'ziga qarashli qismida himoya harakatlarini bajarar ekan, jamoa o'z darvozasi tomon chekinadi va maydonning o'rta chizig'i yaqinida oldindan taqsimlangan o'yinchilarni tanlab oladi. To'p egallagan o'yinchi zich "devor" bilan pana qilinadi, boshqalarining to'silishi esa o'yinchi bilan darvoza orasidagi masofaga bog'liq, u darvozabonga qancha yaqin bo'lsa, shuncha zich pana qilinadi. Hujumchilar harakatini maksimal murakkablashtirish uchun himoyachilar butun maydon bo'ylab yoki erkin to'p tashlash zonasida hamma hujumchilarni zich to'sib tursa, yaxshi natija beradi.

Zonali himova: Bu tizimda har bir himoyachining harakat qilish zonasini aniqlanadi, ya'ni, uning zonasiga kirgan har bir hujumchiga zich panohgoh bo'lishga harakat qiladi. O'yinchilar himoyaga qaytib kelib, o'zlari tanlagan joylarini egallaydi, so'ng hujumchilarning siljishi va to'pning almashtirilgan joyi tomon harakat qiladi. Hujumchining to'p bilan qilgan har qanday harakatiga shu zonadagi himoyachi javobgardir. Birmuncha xavfli bo'lган 10—12 m masofadan hujum qiluvchi hujumchiga unga yaqin bo'lган himoyachi chiqadi, boshqalari esa bo'sh qolgan joyni to'ldirishadi. O'yinchilarning himoyada joylashishining bir necha variantlari mavjud bo'lib, asosan ularning beshtasi zonada joylashishga harakat qiladilar: burchaklarda, markazda va ikkitasi ularning orasida eng baland bo'yli himoyachilar o'rtada, qolganlari esa birin-ketin burchak tarafga joylashadi. U yoki bu variantni tanlash raqib o'yinchilarining tarkibi va harakat qilishlariga bog'liq. Uzoq masofadan natijali hujum qiladigan jamoaga qarshi ikki chiziq bo'ylab mudofaa tashkil etiladi burchakdagi va chiziq bo'ylab o'ynaydigan o'yinchilar orqali hujum qilinsa, u holda himoyachilarning bir, ikki qator himoya qilish chizig'ida joylashish usuli qo'llaniladi. Keng tarqalgan zonada himoya qilish tizimlari qatoriga 6-0, 5-1, 4-2, 3-3 lar kiradi. Hozirgi kunda qo'l to'pi o'yinida himoyadan hujumga o'tish tezligi, taktik harakatlarni bajarish tezkorligi va aniqligi oshadi va buning natijasida texnik harakatlarni bajarish vaqtini qisqaradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Darsliklar va metodik o'quv qo'llanmalar.
3. Internet saytlari



YOSH SPORTCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIK'LARI

Raximov Ziynatbek Rustamboyevich

Xorazm viloyati Urganch shahar

8 – sonli AFChO'IMI ning
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh sportchilarning musobaqa oldidan va musobaqa vaqtidagi psixologik holatlari, ularni ruhlantirish masalalari va musobaqaga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: sport, musobaqa, jismoniy tarbiya, sportchi, sog'lom turmush tarzi, ruhiy tayyorgarlik, texnik va taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik.

Jismoniy tarbiya va sport - aholini sport bilan shug'ullanishga jalg etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, mamlakatning sport yutuqlarini ommalashtirishga va xalqaro sport maydonida keng e'tirof etilishiga yo'naltirilgan soha hisoblanadi.

Respublikamizda sportning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilayotganligi hamda buning har tomonlama mukammal qonuniy va taskiliy asoslari yaratilganligi tufayli sport talaba yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi, ularni jismoniy hamda ma'nabn barkamol etib tayyorlash borasida asosiy omilga aylanib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtboshimiz tomonidan sportchilarga berilayotgan bu kabi e'tibor har bir sportchining ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Sportchining musobaqadan oldingi ruhiy holati uning oldingi turli xil musobaqlarda erishgan muvaffaqiyatlariga bog'liq hamda sportchining musobaqaga tayyorgarlik holatiga asab tizimining ta'sirchanligiga ham bog'liq. Biz sportchining musobaqaga tayyorgarlik va musobaqadan oldingi holatini quyidagi 4 ta qismga ajratib o'rgandik.

1. Sportchining musobaqadan oldingi tayyorgarlik holati.
2. Sportchining sportda qaltirash, jonsizlik holati.
3. Sportchining sportga yuqori tayyorgarlik va jangovorlik holati.
4. Sportchining ruhan tushkunlik va yomon kayfiyatllilik holati.

Sportchiga raqibi va bo'lajak musobaqlarning shart-sharoitlari haqida ma'lumotlar berib borishi kerak.

1. Sportchiga musobaqada qatnashishdan ko'zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko'rsatmalar berish.

2. Sportchining musobaqada ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash, g'alabaga erishishning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish.

3. Sportchining bo'lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish aqliy sifatini o'stirishga e'tibor berish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish.

4. Sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to'siqlar vujudga keltirish, ularda bu to'siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko'nikmalar hosil qilish uchun qo'shimcha uslublardan foydalanishni o'rganish.

5. Sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo'ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o'rganish.

6. Sportchini musobaqa boshlanishda ruhiy ko'tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash.

Murabbiy sportchilarda musobaqadan oldingi holatini boshqarish hamda shartgacha tarbiya ta'sir ko'rsatishda uning emotsiya va xissiyotlarini hisobga olish zarur. Sportchilar professional darajaga erishishlarida murabbiy va sport klublarning axamiyati katta. Ularni musobaqalarga tayyorlash jarayonida 3 ta asosiy omilni ko'rsatishimiz mumkin. Bular: jismoniy tayyorgarlik; texnik-taktik tayyorgarlik; psixologik tayyorgarlik.

Sportda paydo bo'ladigan muammollarni to'g'ri hal etish uchun quyidagilarni maqsad qilib qo'yidik.

1. Sport faoliyatining sportchida musobaqadan oldingi psixologik holatini o'rganish.
2. Sport musobaqa jarayonini psixologik jihatdan tahlil qilish.



3. Sport mashg'uloti va musobaqasining sportchi xarakteriga ta'sirini o'rghanish.
4. Sportchining musobaqadan oldingi axloqiy va irodaviy sifatlarni kuzatish.
5. Sportchi faoliyatining shart-sharoitlarini psixologik tahlil qilish.
6. Sportchilarni o'zaro munosabatlarini va tashkilotchilik qobiliyatlarini jamoada tajriba yordamida shakllantirish.
7. Sport mashg'ulotini sifatli tashkil qilish maqsadida maxsus psixologik ko'rsatmalar berish.
Biz sportchining musobaqadan oldingi tayyorgarlik holatining quyidagi psixologik jihatlariga alohida e'tibor berishga harakat qildik:
 - a) yuqorida darajada ishchanlikni vujudga keltirish, musobaqada chidamlilikni o'stirish uslublaridan foydalanish,
 - b) sportchining musobaqadan oldingi va musobaqa jarayonidagi ruhiy holatini o'rghanish,
 - v) noqulay ruhiy holatdan chiqib ketish yo'llarini izlab topish,
 - g) sportchilarning psixologik tayyorgarlik va chiniqish uslublaridan foydalanish.

Shuni ta'kidlash joizki, sportchilarni nafaqat jismoniy tomondan balki, ruhiy tomondan ham chiniqtirib borish zarur. Sportchilarni musobaqalarga jismoniy, texnik va taktik jihatdan tayyorlash bilan bir qatorda, ularni psixologik tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Barcha sport muassasalarida ham malakali psixologlar faoliyat ko'rsatmaydi. Har bir sport klublari, ixtisoslashtirilgan sport muassasalari va sport maktablarida psixologlar faoliyat olib borib, sportchilarning ruhiy tayyorgarligini oshirib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U. Tursunov "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".
2. Y.Masharipov "Sportni rivojlantirishda pedagogik axborot texnologiyasining o'rni".
2. M.T.Davlatshin. "Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya".
3. Internet materiallari.



MILLIY HARAKATLI O'YINLAR VA ULARNING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

Samadov Hayot Hamidovich

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 15-sonli
umumta'lim maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Tel:+998912508945 Email : Hayot1989@inbox.uz

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya fanini o'qitishda innovatsion uslublarni ishlab chiqish va ularni
dars jarayoniga tadbiq qilish qisqacha yoritilgan

Kalit so'zlar: Milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar, sport, animatsiyalar.

Yosh avlodning jismonan sog'lom, aqlan yetuk bo'lib o'sishlarida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya sportni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan qonunlar jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga keng yo'l ochib bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil sentabr oyida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida bolalar sporti inshoatlarini barpo etishda zamonaviy tejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalariga ham e'tibor qaratishi lozimligini ta'kidladi. Milliy sport turlarining jahon maydoniga chiqishi, uning tan olinishi ajdodlarimizning azaliy orzusi, umidlari ushgalanligining yaqqol dalilidir. Milliy harakatli o'yinlardan foydalanish jarayonida boshlang'ich mакtab o'quvchilarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:



- Bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqadi.
- Bolalar xalq o'yinlarida atrofdagi voqe'likni eng tashqi ifodalni jo'shqin his-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar.
- Milliy o'yinlarda bola kattalar bilan bir xil sharoitda yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiq qiladi.
- Kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri, timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham umuman uning chinakkam shaxsiy hayotiga o'chmas iz qoldiradi



O'zbek xalq milliy o'yinlarining mazmunlarini yozib olish, ularni yoshlarga o'rgatish masalalari, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bunda rus sayyoohlari, arxeologlar va tarixiy qidiruvishlarini olib boruvchi olimlarning rolini tan olish kerak bo'ladi. Harakatli o'yinlar o'z nomi bilan inson faoliyatini ta'minlovchi mazmunga egadir. Bu eng qadimgi ajdodlarimiz ha ongi ravishda chuqur bilishgan va amal qilishgan. Ta'kidlanganidek, kurash, ot o'yinlari, kamondan (yoy) nayza (o'q) otish, nayza sanchish, kaltak, tosh va boshqa moslamalarni uloqtirib hayvonlarni ov qilishgan.



Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida epchillik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar sarf qilinishini tushungan qabila, urug' boshliqlari yoshlarni maxsus tayyorlashga kirishgan. Bunda jismonan baquvvat, epchil kishilarni tarbiyachi yo'liga o'rnatib ulardan bolalarni tarbyalashda foydalanilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy xalq o'yinlaridan foydalanishda, ularni qo'llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng kuchli harakatlarga ancha moyil bo'ladi. Buni bolalar yosh davrlarini ishlab chiqqan buyuk pedagog Ya. N. Komenskiy ha o'z vaqtida ta'kidlagan edi. Umuman bu yoshda bolalar juda ham harakatchanligi bilan ajralib turadi. Harakatchanlik esa maxsus oqilona tashkil etilishini harakatga soluvchi yurish-turish shakllarining to'g'riligini talab etadi. Bolalarning bu yoshida tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarini muvozanatligini yuzaga keltirishda kattalar talabining tizimliligi va o'zini tuta bilishga odatlantirish kata rol o'ynaydi. Milliy o'zbek o'yinlarini yoshlar, ayniqsa maktab o'quvchilari sevib, maroq bilan o'ynamoqdalar. Bunday o'yinlar jismoniy tarbiya darslaridagina emas, balki hovlilar va bog', parklarda dam olish soatlarida o'ynaladi. Muhim sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga doir bayon qilingan material ko'proq o'yin tarzida beriladi, lekin mashqlarni tushuntirish va faol dam olish uchun qisqacha pauzalar bo'lgan kichik dozada uzlusiz bajariladi. O'yin mashqlaridan keyin bo'shashtiradigan, ohista yuriladigan mashqlarni yoki diqqat-e'tiborini o'stiradigan mashqlarni berish lozim.

Jismoniy tarbiya oldida jismoniy madaniyat va sportni xalqimizning hayotiga ko'proq singdirish, yoshlarni mustaqillik ruhidha tarbyalashda jismoniy tarbiya va sportning barcha turlitumani shakllaridan, jumladan, xalq an'analardan keng foydalanish, insonlarning sog'ligini yaxshilash va ularni Ona Vatan. Mudofaasiga tayyorlash va shu singari kata vazifalar turibdi. Xalqimizning milliy o'yinlari esa ana shu maqsadda keng qo'llanib kelinayotgan muhim jismoniy va sport vositalaridan biridir. Shuning uchun xalq milliy harakatli o'yinlariga e'tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko'rmoqda. Milliy xalq o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmun va qoidalari o'zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to'xtalgan edik ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana shunday o'yinlardan foydalanishda ularning bolalarga jismoniy ta'sirdan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdumalikov.R, Abdullayev.A Xalq milliy o'yinlari mazmunida ma'naviyat masalalari.
2. A.A. Ikromov Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(11-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000